



UDK:612: 796.10

Munisa IKRAMOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:munisa@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.Abdumannotov taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK PROGNOZLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Аннотация

Mazkur ilmiy maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik prognozlash tushunchasining mazmuni, uning kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan. Pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan mualliflik modeli ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash sifatini oshirishda metodikaning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik prognozlash, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, metodika, prognozlash ko'nikmalari, ta'lim sifati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной научной статье анализируется проблема развития педагогических навыков прогнозирования у будущих учителей на основе современных педагогических подходов. Также раскрывается содержание концепции педагогического прогнозирования и её роль в формировании профессиональной компетентности. Разработана авторская модель, направленная на совершенствование методологии развития педагогических навыков прогнозирования, и её эффективность обоснована экспериментальной работой. Результаты исследования указывают на практическую значимость методологии в повышении качества подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: Педагогическое прогнозирование, будущий учитель, профессиональная компетентность, методология, навыки прогнозирования, качество образования.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING PEDAGOGICAL FORECASTING SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Annotation

This scientific article analyzes the problem of developing pedagogical forecasting skills of future teachers based on modern pedagogical approaches. Also, the content of the concept of pedagogical forecasting and its role in the formation of professional competence are revealed. An author's model aimed at improving the methodology for developing pedagogical forecasting skills is developed and its effectiveness is substantiated through experimental work. The results of the study indicate the practical importance of the methodology in improving the quality of training future teachers.

Key words: Pedagogical forecasting, future teacher, professional competence, methodology, forecasting skills, quality of education.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar keskin ortib bormoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarining xilma-xilligi o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogic prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogic muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogik prognozlash o'qituvchining kelajakdagi ta'lim natijalarini oldindan ko'ra bilishi, o'quv jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarni bashorat qilishi va ularni bartaraf etishga tayyor bo'lishini ta'minlaydi. Prognozlash ko'nikmalari o'qituvchining rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya yuritish kabi kasbiy faoliyat turlarining samaradorligini oshiradi.

Shunga qaramay, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan o'quv jarayonida pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmayapti. Aksariyat hollarda ta'lim jarayoni bilimlarni

egallash bilan cheklanib qolmoqda, prognozlash va bashorat qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar kam uchraydi. [1,2]

Mazkur holat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lib, pedagogik jarayonni samarali boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarning pedagogic prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va uning samaradorligini ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

pedagogik prognozlash tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
pedagogik prognozlash ko'nikmalarining tarkibiy tuzilmasini aniqlash;
prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik model ishlab chiqish;
tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning samaradorligini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlarning qator ishlari bilan boyitilgan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognozlashtirish tushunchasi, uning ma'nosi, ahamiyati va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar katroficha o'rganilgan. R.A.Abdullaev tadqiqoti pedagogik prognozlashni tarbiyaviy jarayonni boshqarish vositasi sifatida qaraydi. U ta'lim muassasalarida pedagogik prognozlarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi. N.Sh. Xoliqovning asarlari o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonida pedagogik prognozlashga alohida e'tibor berilishini talab qiladi. Uning fikricha, bu qobiliyat kelajakdagi o'qituvchilar uchun muhim professional sifat hisoblanadi. F.T. Turdiyevaning tadqiqotlarida pedagogik prognozlashuvning tarkibiy qismlari, xususan, metodologik asoslar, diagnostika usullari va texnologiyalar ishlab chiqish masalalari yoritiladi. Sh.S. Yusupova pedagogik prognoz qilish malakasini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini yuqori baholaydi. Uning ishlari interfaol usulblardan foydalanish orqali pedagogik fikrlashni shakllantirish usullari taklif etiladi. S.Q. Qobilovning izlanishlari pedagogik prognozlashda psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlash usullariga bag'ishlangan. U shuningdek, pedagogik mahoratning rivojlanishi va amaliyotga tatbiq etish masalalarini ham o'rganib chiqadi. X.E. Umarova pedagogik prognozlashuvni rivojlantiruvchi tizimli yondashuvlarga o'rgatish borasida tavsiyalar beradi. Shuningdek, u amaliyotda ilmiy-metodik materiallarni kengroq qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagilardan hulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim jarayoni mobaynida pedagogik prognozlarni shakllantirish vazifasi aniq belgilangan maqsadlar, sharoitlar va mavjud resurslarga asoslangan holda o'quvchilarga taalluqli natijalarni oldindan tasavvur qilishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Bunda prognozlar faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliyotdagi tajribalarga ham asoslangan bo'lishi lozim. [3]

Prognozlashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillar orasida quyidagilar ajratiladi: pedagogik mahorat, ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati, ijodiy qobiliyatlar, pedagogik faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim tizimining innovatsion yo'nalishlari va boshqalari.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini kompleks o'rganish imkonini beradi.

Pedagogik prognozlashni shakllantirish maqsadida turli metodologiyalar, jumladan, eksperimental tadqiqot, pedagogik kuzatish, pedagogik tahlil, sotsiometrik tekshirish va test-savol-javob metodikasi keng qo'llaniladi. Bularning barchasi pedagogik prognozlashni takomillashtirishga xizmat qiladigan empirik ma'lumotlar yig'ish imkonini beradi.

Psixologik nuqtai nazardan yondashganda prognozlar shaxsning intuitsiyasi, tahliliy fikrlash layoqati, kreativligi va refleksiv ko'nikmalari bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ehtiyojlari, intilishlari, maqsadlari va rivojlanish darajasini anglab, ularning istiqboldagi taraqqiyotini tasavvur qila olishi lozim.

Pedagogik prognozlash kompetensiyasi bir qator yondashuvlarga tayangan holda shakllantiriladi.

1. Tizimli yondashuv. Ushbu yondashuv doirasida ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida talqin etiladi, prognozlash esa tizimning istiqboldagi taraqqiyotini qamrab oladi.

2. Faoliyatli yondashuv. Mazkur yondashuvda o'qituvchining prognozlash faoliyati uning pedagogik

amaliyotida o'z ifodasini topadi. Mazkur yondashuv doirasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar pedagogik amaliyotda sinovdan o'tkaziladi.

3. Shaxsiy-tashkiliy yondashuv. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirish uchun mazkur yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv doirasida prognozlash jarayoni talabalarning shaxsiy sifatleri, ya'ni mas'uliyatlik, tahlil qila olish ko'nikmalari, intizomlilik, mustaqil fikrlash faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi unda shakllantiriladigan prognozlash qobiliyatining asosini tashkil etadi.

4. Innovatsion yondashuv. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosida pedagogik jarayonni oldindan bashorat qilish imkoniyatlari kengaymoqda [5].

Pedagogik prognozlashning vazifalari eng umumiy shaklda quyidagilardan iborat:

- kelajakda ta'lim rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari;

- yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, ularning bilim darajasiga qo'yiladigan yangi talablar;

- umuman ta'lim tizimida va uning alohida tarkibiy qismlarida zaruriy mazmuniy, tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlar;

- o'quvchilarning shaxsiy fazilatlariga doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy talablar munosabati bilan ta'lim faoliyatini optimallashtirish imkoniyatlari va boshqalar.

Tadqiqot metodlari: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; pedagogik kuzatuv; anketa va suhbat; diagnostik testlar; pedagogik tajriba; matematik-statistik tahlil.

Tadqiqot bazasi va ishtirokchilari

Tadqiqot pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 3–4-bosqich bakalavr talabalari ishtirokida olib borildi. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi.

Pedagogik prognozlash ko'nikmalarining tarkibi

Pedagogik prognozlash ko'nikmalari quyidagi komponentlardan iborat:

1. Kognitiv komponent – prognozlashga oid bilimlar.
2. Amaliy-operatsion komponent – pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish.
3. Refleksiv komponent – faoliyat natijalarini baholash.
4. Motivatsion komponent – prognozlashga bo'lgan ehtiyoj.

Takomillashtirilgan metodika

Metodika quyidagi vositalarni o'z ichiga oladi: muammoli vaziyatlar asosida o'qitish; pedagogik keyslar; refleksiv topshiriqlar; prognozlashga yo'naltirilgan mustaqil ishlar; interfaol metodlar.

Natijalar. Aniqlovchi bosqichda talabalarning pedagogik prognozlash ko'nikmalari past va o'rtacha darajada ekanligi aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda metodika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning prognozlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi.

Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida yuqori darajadagi prognozlash ko'nikmalari shakllanganini ko'rsatdi. Statistik tahlillar metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Eksperiment natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik prognozlashni shakllantiruvchi pedagogik ta'lim jarayoniga kiritilgan o'quv dasturlari tufayli kelajakdagi o'qituvchilar pedagogik prognozlash malakasida sezilarli darajada o'sish kuzatildi. Imtihon natijalari va pedagogik amaliyot natijalari ham pedagogik prognozlash ko'nikmalari darajasining ortishi isbotlaydi. [7,8].

Muhokama. Tadqiqot natijalari pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim

ekanligini ko'rsatdi. Metodika talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqilgan metodika pedagogika oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etiladi.

Ma'lum qilinishicha, pedagogik prognozlashni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya qilinadi:

Pedagogik prognozlash tashkiri bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish;

Amaliyot paytida tegishli tajriba almashinuvi tizimini tashkil etish;

Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

Talabalarga pedagogik tahlillar o'tkazish uchun ma'lumot bazalarini taqdim etish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining sifat va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pedagogik prognozlash shunchaki kelajakni bashorat qilish emas, balki ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan holda loyihalash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oldindan ko'ra bilish va o'quvchilarning intellektual rivojlanish dinamikasini to'g'ri baholash sanaladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni prognozlash faoliyatiga tayyorlash - bu ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatida strategik boshqaruvchi va ijodkor pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini va o'quvchilarning bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva M. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent, 2019.
2. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
3. Babanskiy Yu.K. Pedagogika. – Moskva, 2018.
4. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York, 2019.
5. Davletshin M. Ta'lim psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
6. Dewey J. Experience and Education. – London, 2016.
7. Hattie J. Visible Learning. – London, 2018.
8. Klarin M.V. Innovatsion ta'lim texnologiyalar. – Moskva, 2019.